



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO'RSATKICHLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARINING TAHLILI

PhD Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-6478-8293

abdulhamidullo97@gmail.com

Ermatov Muhammadamin Akmaljon o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

ermatov04@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida salmoqli hissasiga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanadi. Uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda faoliyatning iqtisodiy holatini tahlil etish, o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini belgilash va buning yordamida tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda zaruriy ko'rsatkichlar va faoliyatning iqtisodiy xavf darajasini baholash ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, iqtisodiy xavfsizlik, xavf-xatar, moliyaviy boshqaruv, raqamlashtirish, tadbirkorlik subyektlari.

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕТОДЫ ИХ ОЦЕНКИ

PhD Акбаров Абдулхамид Акмаль угли

Андижанский машиностроительный институт,

Ташкентский государственный экономический университет

Эрматов Мухаммадамин Акмалджон угли

Андижанский экономико-строительный институт

Аннотация. Предпринимательская деятельность, вносящая значительный вклад в экономическое развитие страны, постоянно поддерживается государством. При обеспечении его экономической безопасности важно проанализировать экономическое положение деятельности, определить конкретные показатели экономической безопасности и с помощью этого оценить экономическую безопасность предпринимательской деятельности. В данной статье научно проанализированы необходимые показатели обеспечения экономической безопасности предпринимательской деятельности и оценки уровня экономического риска деятельности.

Ключевые слова: предпринимательство, экономическая безопасность, риск, финансовый менеджмент, цифровизация, субъекты хозяйствования.

ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY INDICATORS IN BUSINESS ACTIVITY AND THEIR ASSESSMENT METHODS

PhD Akbarov Abdulkhamid Akmal ugli
Andijan Machine-Building Institute,
Tashkent State University of Economics
Ermatov Muhammadamin Akmaljon ugli
Andijan Economics and Construction Institute

Abstract. *Entrepreneurial activity, which has a significant contribution to the economic development of the country, is constantly supported by the state. In ensuring its economic security, it is important to analyze the economic situation of the activity, to determine the specific indicators of economic security, and with the help of this, to assess the economic security of the business activity. In this article, the necessary indicators for ensuring the economic security of business activity and the assessment of the level of economic risk of the activity are scientifically analyzed.*

Keywords: *entrepreneurship, economic security, risk, financial management, digitization, business entities.*

Kirish.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining jahon miqyosida jadal sur'atlarda rivojlanib borishi tabiiy ravishda tadbirkorlik faoliyatida uning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi muqarrar muammolarni yuzaga keltiradi. Muayyan iqtisodiy xavf-hatarlar, agar vaqtida ularning oldini olish chorasi ko'rilmasa, har qanday gurkirayotgan biznesni ham juda qisqa muddatda inqirozga yuz tutishiga sabab bo'lishi tabiiy (Ermatov, Akbarov, 2021). Albatta, iqtisodiy xavfsizlik tadbirkorlikning barqarorligi va muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan muhim shartlardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qulay ishbilarmonlik sharoiti hamda raqobat muhitini ta'minlash borasida davlat tomonidan bir qancha amaliy sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda tadbirkorlikni rivojlantirish davlatning muhim siyosiy harakati, qolaversa aholi turmushi farovonligining asosi sifatida qaralmoqda. Bu borada davlat rahbari Sh.Mirziyoyevning har yili avgust oyida yurtimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan uchrashuvi an'ana shaklini olganligi ushbu sohaning davlat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligini bildiradi.

Bu borada 2017-yil 19-iyunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-sonli Farmonga asosan "tadbirkorlik subyektlarini, ayniqsa o'z faoliyatini yo'lga qo'yish davrida ularni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofazasining kafolatlarini kuchaytirish, jadal rivojlanishiga har tomonlama ko'mak berish, xususiy mulk va tadbirkorlikning ustuvorlik roli va daxlsizligini ta'minlash, respublikamiz tumanlari va shaharlarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish" (Farmon, 2017) mexanizmi ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Ma'lumki, iqtisodiy xavfsizlik keng ma'noda, tadbirkorlik faoliyatining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganligini anglatadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlarining barqaror faoliyat yuritishlari, raqobatbardoshlikni oshirishlari va rivojlanishlari uchun muhim omil hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar Arefiyeva va Kuzenko (2005) tadbirkorlik sohasida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini korxonalar resurslaridan samarali foydalanish holati hamda tashqi va ichki tahdidlarning oldini olish, uzoq muddat bozorda yashab qolish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga imkon beradigan bozor potensialidan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

Olim Abulqosimov (2006) fikricha "Korxonalar (firmalar)ning iqtisodiy xavfsizligi – ma'muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener-texnik choralar-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir".

Iqtisodchi olim Xoshimov (2015) o'zining ilmiy qarashlarida "Tadbirkorlik faoliyati xavfsizligi deganda, tadbirkorlik faoliyati sub'yekti amal qilishining barcha bosqichlarida, birinchi navbatda, iqtisodiy, huquqiy va boshqa salbiy oqibatlariga olib keluvchi ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilinganligini tushunish lozim" deya ta'rif keltirgan.

Iqtisodchi olimlar Tursunov, Uktamov, Sobirovalar (2022) tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligiga "tadbirkorlik sub'yekti tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va injener texnik tavsifdagi choralar-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir", deya ta'rif berganlar.

Olima Bayboboyeva (2020) o'z ilmiy ishlarida "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligi, barcha mulklarning maqbul nisbatiga asoslanib, sub'yektning barqaror ishlashiga, qiyinchiliklar va tahdidlarga munosib javob berishga, rivojlanish va takomillashtirish imkonini beradi" deya ta'kidlagan. Shu nuqtayi nazardan tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi har doim muhim ahamiyatli, shuningdek, hozirgi globallashtirish sharoitida doimiy ravishda yangilanib turuvchi strategiyalarga asoslangan bo'lishi zarurdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada ilmiy abstraksiya, guruhlash, ilmiy-tahliliy hamda tizimli tahlil metodlaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Albatta, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligi o'zining bir qancha asosiy tashkil etuvchilariga ega. Ulardan tadbirkorlik faoliyatining *moliyaviy barqarorligi* eng muhim elementlardan biri sanaladi. Barqaror moliyaviy faoliyat, kapitalning yetarli bo'lishi, sof foydaning yuqori ko'rsatkichi faoliyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, shuningdek, iqtisodiy xatarlarga duch kelish ehtimolini kamaytiradi. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatining *raqobatbardoshlik* ko'rsatkichi qay darajada yuqori bo'lsa, bozorda uning faoliyatiga doimiy talabni yuzaga keltiradi. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqobatbardoshlikni saqlash va doimiy ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarini turli *tashqi va ichki iqtisodiy tahdidlardan himoya qilish* mehanizmining mavjudligi bo'lishi mumkin bo'lgan xavflarni yuzaga keltirish ehtimolini pasaytiradi. Bunda tadbirkorlik sub'yekti tomonidan ishlab chiqilgan o'ziga xos iqtisodiy xavfsizlik strategiyasining mavjud bo'lishi va bu strategiya amalda qo'llanilishi zarur.

Vanihojat, tadbirkorlik faoliyatida *moddiy va ma'naviy resurslarini samarali boshqarish* orqali faoliyat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mumkin. Mehnat resurslariga to'g'ri tashkil etilgan vazifalar taqsimlash, doimiy ravishda audit tashkil etish, xodimlarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash, shuningdek, moddiy resurslardan oqilona foydalanish shular jumlasidandir.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni baholashda bir qancha ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiy barqarorligi va samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Bularning orasidan eng asosiy lari moliyaviy, tashqi va ichki iqtisodiy hamda raqobatbardoshlik ko'rsatkichlaridir.



1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikning asosiy elementlari²

Moliyaviy ko'rsatkichlar o'z ichiga tadbirkorlik faoliyatining sof foyda hajmi, likvidlik koeffitsiyenti, rentabelligi hamda kapital yetarliligini olsa, tashqi va ichki iqtisodiy ko'rsatkichlar eksport va import balansi, investitsiya, ishlab chiqarish samaradorligi hamda mehnat resurslarining samaradorligini o'z ichiga oladi. Tadbirkorlik faoliyatining raqobatbardoshlik ko'rsatkichi esa bozordagi tadbirkorlik ulushi, innovatsion va texnologik faollik (ya'ni yangilik yaratuvchanlik) va ishlab chiqilayotgan mahsulot hamda yaratilayotgan xizmatning sifatini izohlaydi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar	Tashqi va ichki iqtisodiy ko'rsatkichlar	Raqobatbardoshlik
<ul style="list-style-type: none"> •Sof foyda: Tadbirkorlik sub'ektlarining sof foydasi ularning moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi. •Likvidlik koeffitsiyenti: Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. •Rentabellik koeffitsiyenti: Korxonaning umumiy rentabellik darajasini aniqlaydi. •Kapital yetarliligi: Tadbirkorlik sub'ektlarining kapital yetarliligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. 	<ul style="list-style-type: none"> •Eksport va import balansi: Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo balansini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. •Tashqi qarz va investitsiyalar: Tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi qarzlari va investitsiyalarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. •Ishlab chiqarish samaradorligi: Korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. •Xodimlarning samaradorligi: Korxonaning xodimlar samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. 	<ul style="list-style-type: none"> •Bozor ulushi: Tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy bozor ulushini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. •Innovatsion faollik: Tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faolligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. •Mahsulot sifati: Tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulot sifati va iste'molchilarning qoniqish darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkich.

2-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari³

Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari aniqlangach uning iqtisodiy xavfsizligini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Ma'lumki, biror bir hodisaning istalgan turdagi iqtisodiy faoliyatga ta'sirini baholashning bir qancha metodologiyalari mavjud. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash juda muhim, shu bilan birga murakkab jarayon bo'lib, bunda har qanday ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati yuqori (Akbarov, 2023).

Sababi tadbirkorlik – tavakkalchilik asosiga qurilgan faoliyat. Shuningdek, u doimiy ravishda bozor talabiga moslashishi zarur. Bu jarayonda kichik bo'lib ko'ringan har qanday xavf ham faoliyatni muqarrar inqiroz ostonasiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini baholashda kompleks yondashuv zaruriyati yuzaga chiqadi. Baholashda eng an'anaviy iqtisodiy usul – **statistik usuli** har doim muhim ma'lumotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatli.

Statistik usul iqtisodiy xavfsizlikni baholashda keng qo'llaniladi. Ushbu usul yordamida tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning turli ko'rsatkichlari yig'iladi va tahlil qilinadi. Statistik usul quyidagi algoritmni o'z ichiga oladi:

² Muallif ishlanmasi.

³ Muallif ishlanmasi.

- ❖ Ma'lumotlarni yig'ish bosqichi – iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'iladi;
- ❖ Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi – yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi va turli ko'rsatkichlar aniqlanadi;
- ❖ Natijalarni taqqoslash bosqichi – natijalar boshqa tadbirkorlik sub'ektlari yoki joriy sub'ektning o'tgan davrdagi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni baholashda statistik usul eng sodda usul bo'lib, natijalar umumiy miqyosda ko'rinadi. Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni baholashda umumiy jarayonni chuquqroq tahlil etishda **ekonometrik usul** ham keng qo'llaniladi. Ekonometrik usul yordamida turli omillar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi va iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar saralab olinadi. Ekonometrik usul o'z navbatida quyidagi algoritmi o'z ichiga oladi:

- Model qurish – iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun matematik model quriladi;
- Ma'lumotlarni kiritish – modelga kerakli ma'lumotlar kiritiladi;
- Natijalarni tahlil qilish – model yordamida olinadigan natijalar tahlil qilinadi va baholanadi.

Algoritm natijasi har doim ham to'g'ri chiqmasligi mumkin. Sababi bunda natija biz tomonimizdan tuzilayotgan modelga asoslangan bo'ladi. Agar model to'g'ri tuzilib, barcha parametrlari qamrab olinsa, albatta, to'g'ri va aniq natijaga erishiladi.

Yana bir keng tarqalgan usullardan biri bu – **ekspert baholash usuli**. Ekspert baholash usuli iqtisodiy xavfsizlikni baholashda mutaxassislar fikrini hisobga olish imkonini beradi. Bu usul yordamida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning ahamiyati aniqlanadi. Ekspert baholash usuli quyidagi algoritmi o'z ichiga oladi:

- Ekspertlarni tanlash – iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun mutaxassislar tanlanadi;
- So'rovnoma o'tkazish – ekspertlar orasida so'rovnoma o'tkaziladi va ularning fikrlari yig'iladi;

- Natijalarni tahlil qilish – ekspertlarning fikrlari tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Natijada soha mutaxassislari va tajribali tadbirkorlarning fikrlari asosida faoliyatning iqtisodiy xavfsizligini baholashga erishiladi.

Tadbirkorlik faoliyati turi, faoliyat sohasi, ko'lami hamda bozordagi o'rniga qarab yuqoridagi barcha usullarni birgalikda – kompleks tarzda ishlatish ham yanada aniq natijalarni, xulosa va takliflarni olishga yordam berishi tabiiy.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektiga xos bo'lgan turli strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Strategiya o'z ichiga faoliyatning sohasiga ko'ra bo'lishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldini olish chora-tadbirlari, iqtisodiy xatar yuzaga kelgan vaqtda bajarilishi zarur bo'lgan hatti-harakatlar, shuningdek, xatar yuz berganidan so'ng korxonaning inqirozga yanada chuqur kirmasligi, tadbirkorlik sub'ekti o'z-o'zini saqlab qolishga oid bo'lgan birlamchi hamda asosiy harakatlar rejasini oladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "xavf-xatar – jamiyat, davlat, xo'jalik sub'ekti, shaxs hayot faoliyatiga, rivojlanishga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil, shart-sharoit, vaziyat"dir (Tursunov va boshq., 2022).

Tashkilot miqyosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun strategiya ishlab chiqishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- Tadbirkorlik sub'ektlarining moliya boshqaruvini kuchaytirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;
- Korxonalar xarajatlarini optimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni saqlash
- Innovatsiyalarni joriy etish orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirish (Ibragimov, Akbarov, 2017);
- Mahsulot sifatini yaxshilash orqali iste'molchilarni qoniqtirish va bozor ulushini oshirish;
- Korxonaning iqtisodiy risklarini boshqarish va minimallashtirish.

- Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun sug'urtalash xizmatlaridan foydalanish;
- Korxonaning resurslarini samarali taqsimlash va boshqarish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;
- Korxonaning inson resurslarini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish.

Xulosa va takliflar.

Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari haqida ilmiy-tahliliy yondashuvda so'z yuritildi. Iqtisodiy xavfsizlikni baholashda statistik, ekonometrik, ekspert baholash va kompleks baholash usullari keng qo'llaniladi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, ular yordamida tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun turli strategiyalar va chora-tadbirlar qo'llanilishi zarur. Bu esa tadbirkorlik sub'ektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash korxonalarining barqaror rivojlanishini, moliyaviy mustahkamligini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xavfsizligini tahlil etish, baholash va uni ta'minlashda quyidagi takliflar biz tomonimizdan taqdim etiladi:

* Tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda integratsiyalashgan ya'ni kompleks yondashuvdan foydalanishlari lozim. Bu degani turli baholash usullarini birgalikda qo'llash va ular yordamida keng qamrovli tahlil o'tkazish.

* Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari va yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va boshqaruv tizimlarini joriy etishlari zarur. Bu raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

* Tadbirkorlik sub'ektlari xodimlari malakasini oshirish va ularni doimiy ravishda yangi bilimlar bilan ta'minlashga e'tibor berishlari lozim. Bu iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

* Tadbirkorlik sub'ektlari o'z iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun risklarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini joriy etishlari zarur. Bu moliyaviy, ishlab chiqarish va bozor risklarini minimallashtirish imkonini beradi.

* Tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy boshqaruvini kuchaytirishlari lozim. Bu kredit olish imkoniyatlarini oshirish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

* Tadbirkorlik sub'ektlari xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va xorijiy bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali o'z iqtisodiy xavfsizligini oshirishlari mumkin. Bu orqali eksport salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirish mumkin bo'ladi.

* Tadbirkorlik sub'ektlari texnologik rivojlanishga e'tibor berishlari va raqamli transformatsiyani amalga oshirishlari zarur (Akbarov, 2023). Bu ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun korxonalar keng qamrovli va integratsiyalashgan yondashuvni qo'llashlari, innovatsiyalarni joriy etishlari, xodimlar malakasini oshirishlari, risklarni boshqarish tizimini joriy etishlari, moliya boshqaruvini kuchaytirishlari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishlari va texnologik rivojlanishga e'tibor berishlari zarur. Natijada ular barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashlari mumkin.

Adabiyotlar / Лумератмпа/ Reference:

Abulqosimov X.P. (2006) Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 111 – b

Akbarov, A. (2023). KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI AXBOROT XAVFSIZLIGI ORQALI TA'MINLASH MASALASI. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions" November.

Akbarov, A., & Xomidov, I. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING RAQAMLI XAVFSIZLIGI. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 50-55.

Arefieva, O.V., Kuzenko, T.B. (2005) Planuvannia ekonomichnoi bezpeky pidpriemsv (Planning of enterprise economic security). Vyd-vo Yevrop. un-tu, Kyiv 24-27-p

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-sonli Farmoni, 19.06.2017 - <https://lex.uz/acts/-3238384>

Ibragimov, N., & Akbarov, A. A. (2017). The role of cryptography in information security. Научные разработки: евразийский регион, 107.

Tursunov B.O., Uktamov X.F., Sobirova M.N. (2022) Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, - 230 b.

Байбобоева, Ф. (2020). Тадбиркорлик фаолияти иқтисодий хавфсизлиги тушунчасининг моҳияти ва намоеън бўлиш шакллари. Экономика и инновационные технологии, (3), 180-186.

Хошимов П.З. (2015). Тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш концепцияси ва тизими. "Иқтисод ва молия" илмий журнали. –Т.: 11. 24-б

Эрматов, А.А., & Акбаров, А. (2021). Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятида иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2021. 6-сон. 239-249-б.